



Types Of Responsibility In Preventing Illegal Circulation Of Cultural Assets

**Ergashev Jahongir
Sheraliyevich**

**Lecturer at the Department of Special Legal Studies
disciplines of the Customs Institute**

ABSTRACT

The article discusses the concept, types, content, and essence of responsibility for the illegal transportation of cultural resources across the customs border and some problematic issues that arise in determining the responsibility for preventing the unlawful circulation of cultural resources.

Keywords:

Customs authorities, customs crimes, types of criminal responsibility, inevitability of responsibility.

Kirish

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu esa o'z navbatida xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona aloqalarni kuchaytirish, O'zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsion, turistik hamda boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi savdo aylanmasining o'sishi, transport oqimi va yo'lovchi tashuvlarining ko'payishi bojxona sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish muhimligini belgilab beradi. Bu esa munosabatlarning tomonlardan biri bojxona organlari ekanligi hamda ularning aynan jahon iqtisodiyotidagi yangi tendensiyalarga mos ravishda rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda bojxona organlari faoliyatiga oid zamonaviy tendensiyalar xalqaro xujjatlar va milliy qonunlar bilan belgilanmoqda. Zamonaviy tendensiya asoslarini amalga oshirish o'z navbatida bojxona organlari

faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga 1998-yil 29-avgustdagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida" gi qonuning 5-moddasida madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solinishida Davlat bojxona qo'mitasi vakolatli organ sifatida belgilangan.

Shuningdek, ma'lumot uchun 2022-yil oktyabr oyida "Madaniy boyliklar noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi e'lon qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Madaniy boyliklarni asrab-avaylash yuzasidan asosiy qomusimiz bo'lgan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi "Fuqarolarning burchlari" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobning 61-moddasida fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shartligi belgilangan. Tarixiy,

ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi deb belgilab qo'yilgan" [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi

O'RQ 678-I-sonli **"Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"**gi Qonunining 23-moddasi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik" deb nomlanib, unga ko'ra moddiy-madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi qonunchilikni buzishda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi ko'rsatib o'tilgan[2].

Fuqarolar tomonidan madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tganlik holatlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan javobgarlikni qo'llashda bojxona organlari faol ishtirok etib, mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlab kelmoqda.

Bu o'z o'rnida bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni talab etiladi.

- jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etish;
- tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek tashqi savdo operatsiyalarining

bojxona organlariga taalluqli qismini o'tkazishda valyuta to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish;

- tovarlarning tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish;
 - fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
 - xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish;
 - bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo'llash;
 - bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish;
 - O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash[3].
- Demak, qayd etilgan vazifalar bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda bir-birini to'ldirib turadi. Shunga ko'ra bojxona xizmati organlari o'z vazifalarini astoidil ado etishlari natijasida mamlakatimizni iqtisodiy ta'minlashda o'z xisasini qo'shib kelmoqda.
- Yuridik javobgarlikning 4 turi mavjud:
- jinoiy javobgarlik;
 - ma'muriy javobgarlik;
 - fuqaroviy-huquqiy javobgarlik;
 - intizomiy javobgarlik.

Tahlil va natijalar

Yuridik javobgarlikning turlaridan biri hisoblangan **jinoiy javobgarlik** fuqarolar tomonidan jamiyat va davlat tuzumiga, turli shakldagi mulkka, xo'jalik tizimiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini va hokazolarga qarshi tajovuz qilinganida kelib chiqadi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan talablarni buzish jinoyat hisoblanadi va shu jinoiy harakat yoki harakatsizlikka nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi[4].

Hozirgi kunga kelib jazo tizimini erkinlashtirish (liberallashtirish) bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, mol-mulkni musodara qilish jazosi qo'shimcha jazo tizimidan chiqarib tashlandi. Amaliyotda

fuqarolar va xorijiy turistlar tomonidan bojxona chegarasi orqali ahamiyati va qaymati past bo'lgan moddiy - madaniy buyumlarni olib



Bu kabi ashyolar uchun og'ir jinoiy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq emas. Shunga ko'ra kam ahamiyatli ashyolar uchun dastlab ma'muriy javobgarlikni belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Ma'muriy huquqbuzarlik - ijtimoiy zararli hisoblanib, ya'ni uning sodir etilishi jamiyat va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi.



Ma'muriy javobgarlik ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan bo'lib, aybdor shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan, huquqbuzarni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek huquqbuzarlikning o'zi tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida ma'muriy jazo qo'llashdir[5].

o'tish holatlari ham ko'plab uchrab turibdi.

Misol uchun: chiqarilganiga 50 yildan oshgan SSSR tangalari yoki qog'iz kupyuralari.

Ma'muriy javobgarlik - ma'muriy-huquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lib, ularga - jamiyatda o'rnatilgan tartib-qoidalarni bajarmaslik, masalan yo'l harakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muhofaza etishga qarshi harakatlar va boshqalar kiradi. Ma'muriy-huquqiy javobgarlik bo'yicha quyidagi jazo choralarini ko'rsatish mumkin: ogohlantirish; jarima solish; huquqbuzarlik quroli yoki obyekti bo'lgan narsani musodara qilish; maxsus huquqlardan mahrum etish (ov qilish, transport vositalaridan foydalanish va hokazo); ma'muriy qamoq; axloq tuzatish ishlari va boshqalar. Bojxona organlari moddiy-madaniy boyliklarni noqonuniy olib o'tish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish chog'ida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan vakolatlari doirasida ma'muriy majburlov choralarini ya'ni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish, transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish hamda vakolatlari doirasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini ko'llaydilar[6].

Javobgarlikning muqarrarlighi - yuridik javobgarlik faqat huquqbuzarlik asosida kelib chiqadi, u bilan bevosita bog'liq. Sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik uchun javobgarlik (jazo) albatta qo'llanilishi shart, u muqarrar bo'lmog'i lozim[4].

Hech bir huquqbuzarlik jazosiz qolmasligi va sodir etilgan huquqbuzarlik uchun faqat aybdor shaxsning o'ziga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi, jumladan, ota yoki onaning huquqbuzarlighi uchun farzand yoki farzand uchun ota-ona javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Jamiyatda har bir shaxs sodir etgan huquqbuzarlighi uchun o'zi javob beradi.

O'zbekiston xalqining madaniy merosini asrash, madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda olib chiqilishi va olib kirilishidan muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, ularning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi va O'zbekiston Respublikasiga olib

kirilishi yagona tartibini belgilash, shuningdek xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishda 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan “Madaniy boyliklarnin olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni muhim ahamiyatga ega.

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Bojxona qo‘mitasi amalga oshiradi.

Bundan tashqari o‘z faoliyatini bir qancha xalqaro bitimlar jumladan 1970-yil qabul qilingan YUNESKO “Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga bo‘lgan egalik huquqini o‘zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi konvensiyasi [7] va 1994-yilda Moskva shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi hukumatlari rahbarlari yig‘ilishida, “Noqonuniy olib chiqiladigan va olib kiriladigan madaniy boyliklarni ushlab va qaytarish masalalari bo‘yicha bojxona organlarining hamkorligi to‘g‘risida” bitimi bilan O‘zbekiston Respublikasi: Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Belarusiya, Moldova, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya Respublikalari bilan madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va qaytarishni chora – tadbirlari to‘g‘risida xukumatlararo shartnomalarga asosan amalga oshiradi[8].

O‘zbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni muhofaza qilish O‘zbekiston Respublikasining tegishli mamlakatdagi diplomatiya vakolatxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

Taklif va xulosalar

Bojxona chegarasi orqali madaniy boyliklarni noqonuniy olib o‘tganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati hamda bojxona chegarasi orqali madaniy boyliklarni noqonuniy olib o‘tganlik uchun javobgarlik turlari belgilashda avvalo “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish” tushunchasiga mualliflik ta’rifini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

“Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish – bu madaniy boyliklarni bojxona chegarasi orqali qonunchilikda o‘rnatilgan

tartibni buzgan holda olib o‘tish bo‘lib, ular uchun tegishli mamlakatning huquqiy normalariga muvofiq sanksiyalar nazarda tutiladi”.

Shuningdek, mazkur tushunchani ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etish orqali huquqiy va xizmat hujjatlarida “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish” bilan bog‘liq yuzaga kelgan vaziyatni yoritishda hamda “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish” bilan bog‘liq jinoyatlarni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov qilish jarayonida gumonlanuvchilarning harakatlariga huquqiy baho berishda foydalanish maqsadga muvofiqligi izohlangan.

Qiymat jihatdan kam ahamiyatli bo‘lgan madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqib ketish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq emasligi, shunga ko‘ra dastlab alohida ma‘muriy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Qonunga xilof ravishda madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish harakat to‘g‘ridan-to‘g‘ri og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Shunga ko‘ra kam ahamiyatli madaniy boyliklar uchun dastlab ma‘muriy javobgarlikni belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Taklif: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi bo‘yicha;

227²⁸-modda. Madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish.

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish, —

Madaniy boyliklarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi (olib kirilishi) huquqini beruvchi sertifikat yoxud pasporti mavjud bo'lgan madaniy boyliklarni deklaratsiyasiz O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq ravishda sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qonunchilik tizimiga kiritilayotgan yangi me'yorlar, bojxona organlarning samaradorligi va shaffofligi ta'minlanishi bilan birga mamlakatimizdagi madaniy boyliklarni ximoya qilish maqsadi ko'zlanadi hamda ta'kidlash joizki, qonun hujjatlarini muntazam takomillashtirib borish Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
<https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi O'RQ 678-I-sonli "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi Qonuni.
<https://lex.uz/docs/24377>
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ 502-sonli Qonuni 3-moddasi
<https://lex.uz/ru/docs/4000640>
4. Davlat va huquq nazariyasi Darslik X.T. Odilqoriyev-T. 2022 y 442 bet.
5. Ma'muriy javobgarlik. O'quv qo'llanma. F.Qarshiboyev Toshkent shahri. 2019-y. 95 bet.
6. Ma'muriy javobgarlik. O'quv qo'llanma. F.Qarshiboyev Toshkent shahri. 2022-y. 5 bet.
7. Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh konvensiyasi 1970-yil 14-noyabr
8. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hukumat rahbarlari Kengashi 1994-yil 15-aprel Moskva